QIT‘A JANRI NAVOIY IJODIDA

Mardonqulova Nozigul Tulqinovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Filologiyava tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada qit‘a janri xususiyatlari atroflicha ochib berildi. Alisher Navoiy ijodi misolida qit‘a janri badiiy estetik xususiyatlari ochib berildi. ‘‘Mahbub ul-qulub‘‘ asarida keltirilgan qit‘a tahlil qilindi.
Kalit so’zlar. Qit‘a, lirik janr, qofiya, qanoat, obrazlar tizimi, ifoda usullari.
Abstract: In this article, the features of the continental genre are described in detail. On the example of Alisher Navoi‘s work, the artistic aesthetic features of the continental genre were revealed.
Key words. Continent, genre, rhyme, satisfaction, image system, expreeion mathods.

Har bir lirik janr boshqalaridan fikr va his - tuyg‘ularini badiiy ifodalash usullari bilan farq qiladi. Jumladan qit‘a janr ham.

Qit‘a arabcha so’z bo’lib ‘‘parcha‘‘, ‘‘bo’lak‘‘, ‘‘qism‘‘ degan ma‘nolarni anglatadi. U 2 baytdan bir necha baytgacha hajmda bo’ladi. Hajm jihatdan aniq chegara bilmaydi. Shakl va mazmun jihatidan o’ziga xos sifatlarga ega. Odatda, faqat juft misralari (b-a, d-a, e-a) qofiyalanadi.

Misol uchun:

Hadis tarjimasi sahiyning o‘tdin najoti bovujudi ubudiyat va baxilning jannatdin hirmoni bovujudi siyodat

Kirmagay jannat ichra hech baxil,
Garchi u bo’lsa sayyidi Qurashiy.
Bormag‘ay do‘zax ichra hech saxiy,
Filmasa bo’lsa bandai habashiy.

‘’Badoye’ ul-vasat’’ 359-bet

Demak, yuqorida keltirilgan qit‘ada ‘‘Qurashiy‘‘, ‘‘Habashiy‘‘ so’zlari, ya’ni 2-4- misralar o’zaro qofiyalangan.

Shunigdek, qit‘a a-a, b-b, d-d tarzida ham qofiyalanadi.

Anoniyat uyin buzmoq bobidakim, fano zoviyasin tuzmakdur va o‘zin kam qilmoqda o’zin ko‘rguzmak

Kimki o’zluk imoratni buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmagay solik,
Bo‘la olmas bu naqdg‘a molik.

‘’Favoyid ul- kibar‘‘ 540-bet

Yuqoridagi qit‘ada, 1-2 misralardagi ‘‘Buzdi, ‘‘Muzdi‘‘, so’zlari hamda 3-4-misralardagi ‘‘Solik‘‘, ‘‘Molik‘‘ so’zlari o‘zaro qofiyalangan. Har bir qit‘a maxsus sarlavhaga ega bo’ladi. Ba‘zilari sarlavhasiz ham bo’lishi mumkin. ‘‘Xazoyin ul-maoniy‘‘ kulliyotida o‘rin olgan 210 ta qit‘adan faqatgina ‘‘Badoye ul-vasat‘‘ devonida 2 ta qit‘a sarlavhasiz keltirilgan.Ular :

Tirik chu oxir o'larla, bas, ukush g‘am muhlik,
Chekibajal madalig‘a bu iztirob nedir.
Chu har kishiki tutar, o‘lmayin yo‘q imkoni,

Ne ishki bo‘lmayin imkoni yo‘q, shitob nedur.

‘‘Badoye ul-vasat‘‘ 9-qit‘a.

Ajal chun mukarrardir o'lmak uchun, bas tama‘din
Nedur yuz g‘am o‘tig‘a kuydurmak o‘zni,
Chu tug‘moqdur o‘lmak uchun, bas ne ya‘ni
Ulardin burunhar dam o‘lturmak o‘zni

‘‘Badoye ul-vasat‘‘ 10-qit‘a.

Qit‘aning matl‘asi bo‘lmaydi va taxallus qo‘llanilishi ham shart emas. Ammo Navoiyning aksariyat qit‘alarida taxallus qo‘llanilgan.

Misol uchun:

O’zi tama‘ vodiysin qat‘ va talab vodiysin tay qilg‘anin aytur

Navoiy, olam ahlida tama‘siz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo’qtur, anga bo’lg’ay sharaf.
Sen agar tarki tama‘ qilsang, ulug‘ ishdir bu kim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

‘‘Badoye ul-vasat‘‘ 43-qit‘a.

Uning hajmi, vazni, mavzusi, g’oyasi qat’iy chegaralanmagan. Hajmi 2 baytdan 19 baytgacha bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, axloq-odob haqidagi fikr mulohazalari ifodalagan. Bu janrda shoirlar hayot zavqi, umid va ishonch, insoniylikni ulug‘lash, odob va tarbiya masalalari, e‘tiqod va burch, el va yurtga muhabbat, zamondan shikoyat kabi mavzular qalamga olingan. Aynan bir qonun doirasida bo’lmaganligi sababli ham qit‘ada turli-tuman hayotiy g‘oyalarni talqin qilishga keng imokoniyat tug‘diradi. Shu bois bu janr so‘zda, obrazda, shaklda ortiqcha mumtozlikni, bo‘yoqdorlikni talab qilmaydi. Hayotiy detallar boshqa janrlarga qaraganda keng va ko‘p bo‘ladi.

Turkiy adabiyotda bu janrning ilk namunalari Nasriddin Rabg‘uziyning ‘‘Qissasi Rabg’uziy‘‘ asarida uchraydi. Keyinchalik Navoiy ijodida kamolga yetadi. Uning ‘‘Xazoyin ul-maoniy‘‘ kulliyotida, ‘‘Nazm ul-javohir‘‘, ‘‘Mahbub ul-qulub‘‘, ‘‘Xamsa‘‘ asarlarida qit‘alar o‘rin olgan. Jami qit‘alar soni 300 dan ortiq bo’lib, birgina ‘‘Xazoyin ul-maoniy‘‘ kulliyotida 503 baytdan iborat 210 ta qit‘a keltirilgan.

Navoiy qit‘aning tematik-g‘oyaviy va estetik-badiiy qimmatini ta‘riflab quyidagicha qit‘a yaratgan:

Mundaq muqattaoki, men yig‘misham erur,
Har bir hadiqai xirad aylar uchun farog‘.
Majmun uyla kishvashe sathini,
Hikmat suyidin aylarnisham qit‘ai-qit‘a bog‘.

Navoiyning ‘‘Mahbub ul-qulub‘‘ asarining 4-bobida ‘‘Qanoat‘‘ nomli maqolatining so’nggida xulosa sifatida ushbu qit‘ani keltiriladi.

Jahon ichra ko‘p sun ko‘rguzdi Sone‘,
Emasdur kishi turfa andoqki, qone‘.
Kishidan talabsiz g‘ino hosil etmak,
Yana judg‘a bo’lmamoq hech mone‘.

Lug‘at:
Sun - qudrat; yasash, yaratish. [575]
Sone‘- ijodkor,yaratuvchi, ishlab chiqaruvchi; [569]

Qone‘- qanoat qiluvchi. [740]
G‘ino - boylik, ehtiyojsizlik, moldorlik. [754]
Jud - in‘om, ehson, saxiylik, qo‘li ochiqlik. [234]
Mone‘- man etuvchi, to‘siq bo’luvchi; to‘siq, g‘ov. [397]

Ushbu qit‘ada yaratuvchi ya‘ni Alloh insonlarga jahondagi barcha yaratiqlarni insonlar uchun berdi. Insonlar bergan ne‘matlarga qanoat qilishlari, ehtiyojlaridan ortiq bo‘lganini to‘plamasadan boriga qanoat qilishlari kerakligi uqtiradi. Hamda ehson qilishlikni eslatib o‘tadi.

Qanoat o’zidagi ne’matlarga shukur qilish, boshiga tushgan musibat, qashshoqlik va qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo’lish. Alloh taoloning taqdiroti va taqsimotiga rozilikdan paydo bo’luvchi ko’ngil boyligi bo’lib, u hasad, tama, ochko‘zlik, adovat, baxillik kabi illatlarning shifosidir.Abdulla Avloniy shunday deydi: ‘‘Janobi haqning amriga itoat qanday saodat etsa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur‘‘. Demak, qanoat kishi uchun eng foydali, dilni yorituvchi, komilli hamda mo’minlikning belgilaridandir.

Xulosa. Qit‘aning o‘ziga xos poetik tabiati, kompazitsion ko‘rinishlari, obrazlar tizimi, ifoda usullariga ega janrdir. Ifodalanilayotgan ma‘noni yanada ta‘sirchan qilishga, fikrni lo‘nda bayon etishga yordam berishini ko‘rib o‘tdik.

Navoiy ijodidagi qit‘alarda insonni komillik sifatlari bilan tarbiya topmoqlikka yo’llaydi. Ayniqsa, shoirning falsafiy, ijtimoiy va axloq - odob bilan bog‘liq bo‘lgan qit‘alari bunga misoldir.Umumiy o’rta ta’lim maktablarining ‘‘Adabiyo‘‘ darslarida Alisher Navoiyning qit‘alarini o’quvchilarga o’rgatiahni tatbiq qilishimiz kerak. Har bir baytning ma‘nosini anglab yetib, hayoti davomida to’g’ri qarorlar qabul qilishiga yordam bersa, barchamizga foydali hamda ta‘lim-tarbiyadan ko’zlangan maqsadga erishilgan bo’ladi. Zero, qit‘alar bitmas tuganmas tarbiya manbayidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shuhrat Sirojidinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov Navoiyshunoslik. ‘‘Akademnashr‘‘ Toshkent - 2020.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul- qulub Toshkent - 2021.
3. Obidjon Karimov Mumtoz she’riyat janrlari ‘‘Namangan‘‘ nashriyoti 2015.
4. Alisher Navoiy. G‘aroyib ul-sig‘ar www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. Favoyid ul-kibar 3-tom Toshkent - 1988.
6. Porso Shamsiyev, S.Ibrohimov, S.Mutallibov Navoiy asarlari lug‘ati G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent -1972.
7. http://old.muslim.uz//.
8. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat